TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

KORABAYEV ELDOR ALIJONOVICH

ELEKTR ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINING TASHKILIY-IQTISODIY FAOLIYATINING AXBOROT XAVFSIZLIGI MEXANIZMLARINI RAQAMLASHTIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 338.2:004.056:621.311

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD) философии по экономическим наукам

Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

KORABAYEV ELDOR ALIJONOVICH

ELEKTR ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINING TASHKILIY-IQTISODIY FAOLIYATINING AXBOROT XAVFSIZLIGI MEXANIZMLARINI RAQAMLASHTIRISH

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4303 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o‘zbek, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasi **(**www.tuit.uz**)** va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Saitkamolov Muxammadxuja Sobirxo‘ja o‘g‘li** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Samatov Gaffor Allakulovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Muratova Shoxista Nigmatullayevna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “____”_____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (71) 238-64-15. e-mail: info@tuit.uz.

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari univercitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2870 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (71) 238-64-15. e-mail: info@tuit.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____”_____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____”_____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., prof.

E.Sh.Nazrova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

Sh.Dj. Irgashxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., prof.

KIRISh (Falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasining barqaror o‘sishi, ikkinchi tomondan sun’iy intellekt texnologiyalarini izchil rivojlanib borish sharoitida global va milliy darajada sanoat sohalari, jumladan elektr energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “2023-yilda Kanadaning Dit Retro energetika korxonasiga kiberhujum natijasida mamlakat 12,1 foiz YaIMdagi ulushni yo‘qotgan hamda yirik pul hajmida iqtisodiy talofat ko‘rgan”[1]. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida maqsadli rivojlantirishning muhim shartidan biri sifatida ishlab chiqarish korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini ustuvor darajada tashkil qilish o‘ta dolzarb masala hisoblanmoqda.

Jahonda elektr energetika sanoati korxonalari axborot xavfsiz-ligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada boshqaruvda axborot xavfsizligini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini to‘laqonli shakllantirish, aqlli energetika tizimlari kiberbardoshliligini oshirishning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, IT texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan elektr energiyani boshqarishda sodir bo‘ladigan talofatlarni aniqlash uslubiyotini takomillashtirish, aqlli texnologiyalarga ko‘ra boshqaruvning kibersamaradorligini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi mavzulardagi tadqiqotlar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda elektr energetika sanoatini sifat jihatdan rivojlantirish va texnologik darajasini jahon talablariga ko‘ra tashkil qilish bilan bir qatorda boshqaruv samaradorligini oshirish, soha korxonalari tashkiliy-iqtisodiy faoliyatining axborot xavfsizligini to‘laqonli tashkil qilish, issiqlik elektrostansiyalari kiberxavfsizligini ta’minlash, elektr ta’minotini iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazishning kiberhimoyasini oshirish kabilar borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida elektr energiyasi sarfini “onlayn” nazorat qilish, shuningdek avtomatlashtirilgan qurilmalarni o‘rnatish joylarini bosqichma-bosqich raqamlashtirishda kiberiqtisodiy faoliyat rivojlanishini ilgari suradi.[2] Mazkur vazifalarning ilmiy ta’minotini amalga oshirishda, jumladan energetika sanoati korxonalari kiberxavfsizlik darajasining maqbul prametrlarini asoslash, mahsulot iste’moliga qadar elektr energiyasini realizatsiya qilish jarayonlari boshqaruvini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari tashkiliy-iqtisodiy kiberxavfsizligining prognoz ko‘rsatkichlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-sonli “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

[1] Energydata.com

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, II. Axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bandi

2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son “2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori va mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.[3]

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tajribasida energetika korxonalari tashkiliy-iqtisodiy faoliyatida axborot xavfsizligi yuzasidan ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va turli sohaviy rivojlanishlar borasidagi yondashuvlar hamda amaliy ishlanmalar D.Gaskova, M.Prostoserdov, L.Magomedova, D.Bekbergenova, R.Anderson, G.Lawrense, L.Martin, A.Efe, R.Rutil, R.Ramashandran, E.Serah, S.Grobman[4] kabi xorij iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakatimizda korxonalarning axborot xavfsizligi va uning iqtisodiy asoslarini tadqiq etish S.Jumanova, I.Alimardonov, A.Anorboyev, A.Rakitskiy, B.Axrorov, T.Shodiyev, M.Saitkamolov, R.Alimjanov, N.Nasrullayev, A.Musayev, K.Kerimov, I.Dustmuhammedov[5] singari olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

[4] Гаскова Д.А. Методы, модели и комплекс программ анализа киберситуационной осведомленности энергетических объектов. Автореф. 2021 г, 34 с//Простосеров М.А. Экономические преступления, совершаемые в киберпространстве, и меры противодействия, авторе дсс. 2016 г, 23 стр//Магомедова Л.Р. 2021 г, 24 ст//Бекбергенова Д.Е. Управление цифровизацией социально-экономического развития региона, 2022 г, 34 стр// Ross Anderson. Why Information Security is Hard – An Economic Perspective.University of Cambridge Computer Laboratory, J.Thomson Avenue, Cambridge CB3 0FD, UK Ross.Anderson@cl.cam.ac.uk, 2000, 64 p// Гордон, Лоуренс А .; Леб, Мартин П. (ноябр 2002 г.). «Экономика инвестиций в информационную безопасност» . Транзакции ACM по информационной и системной безопасности . 5 (4): 438–457. Дои : 10.1145/581271.581274 . S2CID 1500788// Lawrence A. Gordon and Martin P. Loeb. Using Information Security as a Response to Competitor “Analysis Systems”. Communications Of The Acm. September 2001/Vol. 44, No. 9, 71-77// Ахмет Эфе. Организационная кибербезопасност: позиция ИТ-аудита, основанного на экономическом риске, теоретических и практических аспектах кибербезопасности (русское издание). 2023 г, 452 стр// Пунам Патил. Эффективный метод кибербезопасности: Защита данных от киберпреступников (русское издание). Sciencia Scripts. 2022 г, 76 стр// Ravikumar Ramachandran, CISA, CISM, CGEIT, CRISC, CDPSE, OCP-Oracle Cloud Architect, CISSP-ISSAP, SSCP, CAP, PMP, CIA, CRMA, CFE, FCMA, CIMA-Dip.MA, CFA, CEH, ECSA, CHFI, MS (Fin), MBA (IT), COBIT-5 Implementer, Certified COBIT Assessor, ITIL 4 -Managing Professional, togaf 9 Certified, Certified safe5 Agilist, Chennai, India, Date Published: 23 January 2019, https://www.isaca.org/resources/news-and-trends/isaca-now-blog/2019/cybersecurity-and-its-critical-role-in-global-economy// Питер Баняш. Различные аспекты кибербезопасности и осведомленности об информационной безопасности (русское издание). Sciencia Scripts 2023 г, 60 стр// Сера Э. Кибербезопасност: правила игры. Как руководители и сотрудники влияют на культуру безопасности в компании. Интеллектуалная Литература 2021 г// Капинда Ч. Готовност к кибербезопасности повышают правителство в странах мира (русское издание). Sciencia Scripts 2023 г, 68 стр// Steve Grobman. The Second Economy: The Race for Trust, Treasure and Time in the Cybersecurity War. Apress. 2016 y, 374 p

[5] Жуманова С. Киберхавфсизлик - рақамли иқтисодиётнинг муҳим шарти. Янги Ўзбекистон. Kolorpak. 2020 й, 330 б// Алимардонов И. Миллий молиявий хатарларнинг олдини олиш шарти. Халқ сўзи, 2022, 336// Анорбоев А.У. Кибержиноятчилик ва киберхавфсизлик бўйича қонун ижодкорлигининг замонавий тенденциялари: миллий, хорижий ва ҳалкаро тажриба монография. Ўзбекистон Республикаси ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси миллий

Mazkur yo‘nalishda keltirilgan olimlarning tadqiq etilayotgan muammoni hal etish bo‘yicha qo‘shgan hissalarini inobatga olgan holda energetika sanoati korxonalarining axborot xavfisizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish va ularning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishni baholash yo‘llari kabi masalalar respublikamiz iqtisodiy adabiyotlarida yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida ushbu muammoning yechimi keng yoritib berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-59 “Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston mehnat bozorining adaptiv moslashuvchan transformatsiyasi va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tashkil etish modellari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektr energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy yondashuvlari asosida “kiberxavfsizlik iqtisodiyoti” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini energetika sanoatining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati uchun asoslash;

issiqlik energetika sanoat korxonalari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda axborot xavfsizligi rolini izchil tadqiq etish, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarda uning ahamiyati va kibergigiyenaviy salohiyatni aniqlash;

energetika sanoat korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy faoliyatning kiberxavfsizligini baholash va ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tasnifini shakllantirish;

korxonalar tashkiliy-iqtisodiyot faoliyati mexanizmning tarkibiy komponentlarini ilg‘or xorij tajribasi hamda muallif yondashuviga ko‘ra mamlakatimiz iqtisodiy infratuzilmasiga joriy etish imkoniyatlarini asoslash;

energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini axborot xavfsizligini rivojlantirishda innovatsion loyihalarni samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

гвардия ҳарбий техника институти, Мухаммад ал-Хоразмий ном. ТАТУ, 2020 й, 360 б//Ракитский А. Корхонада ахборот хавфсизлиги қандай таъминланади. Korxonani boshqarish. "mtsfer-u Nashriyot uyi" МЧЖ, 2019 й, 334 б//Ахроров Б.А. Иқтисодиёт йўналишидаги бакалаврларни тайёрлашда "Ахборот хавфсизлиги" курсини ўкитиш методикаси. 13.00.02 - Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (информатика): Педагогика фанлари бўйича фалсафа д-ри (phd) дис. Автореф.], 2019 й, 50 б// Шодиев Т. Банк тизимида ахборотларни криптографик услублар ёрдамида ҳимоялашнинг долзарб муаммолари, 2021 й, 312 б// Алимжанов Р. Ахборотни йўқотиш оқибатидаги зарардан компанияни қандай ҳимоя қилиш мумкин. "mtsfer-u Nashriyot uyi" МЧЖ 2020 й, 228 б// Насруллаев Н.Б. Ахборот хавфсизлиги мониторинги тизими ишлашининг самарадорлигини ошириш усуллари ва алгоритмлари [Матн] : техника фан. Фалсафа доктори дис.автор, 2019, 54 б// Мусаев А.И. Узлуксиз шифрлашнинг криптобардошли алгоритмлари ва уларнинг самарадорлигини баҳолаш Техника фанлари номзоди. ... Дис. Автореферати, 2011 й, 21 б// Керимов К.Ф. Электрон ресурсларни ахборот ҳавфсизилиги таҳдидларидан ҳимоясини таъминлашнинг мослашувчан моделлари ва усуллари диссертация автореферати, 2020 й, 58 б//Дустимуҳаммедов И.А. Божхона ахборот тизимларида ахборот хавфсизлигини таъминлаш усуллари ва моделлари [Матн] // А. И. Дусмуҳамедов, А. А. Саидов, З. Б. Абдураҳмонов ; Ўзбекистон Республикаси Давлат божхонаси қўмитаси, Божхона институти. Тошкент : Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022, 204 б//

energetika sanoati korxonalari kiberxavfsizligini oshirishda iqtisodiy risklar va kibergigiyenaviy faoliyatni takomillashtirish choralarini izchilligi bo‘yicha tavsiyalarni asoslash;

elektr energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Toshkent IES”AJ tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligi tanlangan

Tadqiqotning predmetini energetika sanoati tizimi korxonalari tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligi mexanizmlarini raqamlashtirishni faollashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz va tizimli tahlil, modellashtirish, analogiya, umumlashtirish, abstragatsiya, omilli, modelli va aksiomatik tahlil, ekspert va dasturiy baholash, statistik taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, algoritmlash va bashoratlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

energetika sanoati korxonalari kiberhimoyaviy salohiyati, kiberxavfsizlik va risk darajasiga ko‘ra iqtisodiy kiberxavfsizlik darajasining $0,7 \leq C \leq 0,95$ oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiqligi va unga ko‘ra himoya tizimining strategik ta’minoti muvofiqligi asoslangan;

elektr energetika sanoati korxonalari axborot xavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini faollashtirish strategiyasi jarayonni maqsadli qiymat o‘lchovlariga ko‘ra baholash, multiseriyaning xronologik ketma-ketligini asoslash, kiberhimoyaviylikni xalqaro va milliy darajalarini qiyoslash kabilarga ko‘ra takomillashtirilgan;

strategik jihatdan ishlab chiqarishning modernizatsiyalash darajasini oshirish, iqlim o‘zgarishlarining ta’siri va arzon xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini kengaytirish kabilarga ko‘ra “Toshkent IES” AJ tashkiliy-iqtisodiy faoliyati kiberxavfsizligini ta’minlanishda 2024-2029 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyihalar prognozi asoslangan;

tashkiliy-iqtisodiy faoliyat alternativalari va taklif qilingan multikollakt strategiyani e’tiborga olgan holda “Toshkent IES” AJ elektr energetika komponent jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy kiberxavfsizligining 2023-2028 yillarga bo‘lgan davrdagi ekonometrik ssenariysi prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy yondashuvlari asosida “kiberxavfsizlik iqtisodiyoti” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini energetika sanoatining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati uchun asoslangan;

issiqlik energetika sanoat korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda axborot xavfsizligining tashkiliy va iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyati va kibersalohiyati baholangan;

tashkiliy–iqtisodiy faoliyat mexanizmining tarkibiy komponentlarini xorij tajribasi hamda muallif yondashuviga ko‘ra iqtisodiy infratuzilmasiga joriy etish imkoniyatlari asoslangan;

energetika sanoati korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy faoliyat mexanizmini samarali faollashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra samaradorlik oshirish chora-tadbirlari taklif qilingan;

elektr energetika sanoati korxonalarining komponentlarining raqamli texnologiyalarining iqtisodiy xavfsizligi va risk darajasini baholash yuzasidan qarorlar qabul qilishda muallif yondashuviga ko‘ra “qum soati” modeli va uni qo‘llab-quvvatlovchi multikollakt strategiyasi takomillashtirilgan;

axborot xavfsizligini faollashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, “Toshkent IES” AJ va tizim korxonalaridan olingani, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tadbiq etilib, vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar energetika sanoati korxonalari tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligi mexanizmi faolligi va samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda mazkur mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini boyitishga xizmat qilishi hamda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublikada energetika sanoatining yetakchi korxonasi “Toshkent IES” AJ tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligi mexanizmining kiberhimoyaviy samaradorligini oshirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan amaliy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektr energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati axborot xavfsizligini raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

energetika sanoati korxonalari kiberhimoyaviy salohiyati, kiberxavfsizlik va risk darajasiga ko‘ra iqtisodiy kiberxavfsizlik darajasi $0,7 \leq C \leq 0,95$ oralig‘ida bo‘lishining maqsadga muvofiqligi va unga ko‘ra himoya tizimining strategik ta’minoti muvofiqligi bo‘yicha taklif “Toshkent IES” AJ bo‘yicha 2023-yil 12-apreldagi 284-son buyruq bilan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 3-apreldagi 04-10-2259-sonli ma’lumotnomasi; “Toshkent IES” AJning 2024-yil 27-martdagi 04-10-14/508-sonli ma’lumotnomasi). Natijada jamiyat tashkiliy-iqtisodiy faoliyatining axborot xavfsizligining 0,72 foizga o‘sishi, investitsion salohiyati 0,12 foiz va boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatida 229 mln.so‘m tejalishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

elektr energetika sanoati korxonalari axborot xavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini faollashtirish strategiyasi jarayonni maqsadli qiymat o‘lchovlariga ko‘ra baholash, multiseriyaning xronologik ketma-ketligini asoslash, kiberhimoyaviylikni xalqaro va milliy darajalarini qiyoslash kabilarga ko‘ra takomillashtirilgan yondashuvdan “Toshkent IES” AJ rivojlantirish

strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 3-apreldagi 04-10-2259-sonli ma’lumotnomasi; “Toshkent IES” AJning 2024-yil 27-martdagi 04-10-14/508-sonli ma’lumotnomasi). Taklif axborot xavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini faollashtirish strategiyasini ishlab chiqish sifatini yanada oshirish, jarayonni miqdoriy baholash aniqligini oshirish asosida maqsadli chora-tadbirlarni qo‘llash imkoniyatini kengaytirishga va samaradorlikni oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

strategik jihatdan ishlab chiqarishning modernizatsiyalash darajasini oshirish, iqlim o‘zgarishlarining ta’siri va arzon xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini kengaytirish kabilarni e’tiborga olgan holda “Toshkent IES” AJ tashkiliy-iqtisodiy faoliyati kiberxavfsizligini ta’minlanishda 2024-2029 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyihalar prognozidan “Toshkent IES” AJ rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 3-apreldagi 04-10-2259-sonli ma’lumotnomasi; “Toshkent IES” AJning 2024-yil 27-martdagi 04-10-14/508-sonli ma’lumotnomasi). Investitsion loyiha kiritilishi foydaning ortishi sharoitida faoliyatning kiberhujumga nisbatan iqtisodiy-texnik bardoshligining ortishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

tashkiliy-iqtisodiy faoliyat alternativalari va taklif qilingan multikollakt strategiyani e’tiborga olgan holda “Toshkent IES” AJ elektr energetika komponent jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy kiberxavfsizligining 2023-2028 yillarga bo‘lgan davrdagi ekonometrik ssenariyli prognozi “Toshkent IES” AJ bo‘yicha 2023-yil 12-apreldagi 284-son buyruq bilan amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024-yil 3-apreldagi 04-10-2259-sonli ma’lumotnomasi; “Toshkent IES” AJning 2024-yil 27-martdagi 04-10-14/508-sonli ma’lumotnomasi). Taklifning joriy qilinish, jumladan 2023-yilda tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlaring samarali tashkil qilinishiga ko‘ra AJ axborot xavfsizligini 0,7 foizga ortishiga muayyan darajad xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Energetika sanoatining tashkiliy-iqtisodiy faoliyati kiberxavfizligi mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida elektr energetika sanoat korxonalarida iqtisodiy kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot risklarining iqtisodiy asoslari, kiberhujumlarning iqtisodiy tahdidlari va talofatlari oqibatlarining ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan.

Bizning fikrimizga ko‘ra, axborot xavfsizligi iqtisodiyoti deganda har bir axborot texnologiyalari foydalanuvchilarining vositalaridan iqtisodiy zarar keltirishini oldini olishga asoslangan iqtisodiyot tushuniladi. Energetika sanoati korxonalarining kiberxavfsizlikka uchrashi boshqa sanoati korxonalariga qaraganda yuqoriroq foizni tashkil etib, unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Energetika sanoati korxonalarining kiberhujumga uchrashiga ta’sir etuvchi omillar[6]

T/r	Kiberxujum omillari	Hujum ulushi	Kiberhujum maqsad va oqibatlari
1.	To‘lov varaqalari orqali ma’lumotlarga ega bo‘lish	22%	Elektr energiya to‘lovchilarining moliyaviy rekvizitlarining konfidentsialligi yo‘qoladi
2.	To‘lov kartalaridan pulni o‘marish	19%	To‘lov kartalarida elektr energiya o‘chib qolishiga qarshi pul mablag‘ining shakllantirilganligi
3.	Elektr energiya ta’minoti dispetcherlik xizmati ma’lumotlari o‘chirilishi, “rendom” holati	18%	Asosiy to‘lovchilarning qarzdorliklari uchun sun’iy qora to‘lov bozorining shakllantirishi
4.	Rejalashtirilgan manzilli xonadonni o‘marish	16%	Xonadonni chiroqsiz qoldirgan holda barcha aloqa vositalarini bloklash
5.	“Masaxaraboz xaker” ya’ni xaker mashq qilib ko‘radi, masxara qiladi	10%	Xakerlik faoliyati borasida o‘zining hamkasblari orasida tashrif qog‘ozini shakllantirish

Mazkur jadval “Xalqaro elektraloqa ittifoqi” tashkilotining “Kiberxavfsizlikning global dasturi”ni asoslashda keltirilgan ma’lumot bo‘lib, unda 210 tadan 125 ta mamlakatning statistika asosida shakllantirilgan.

Intellektual texnologiyalar sanoatning asosiy qismida yengillik va mukammallik yaratib berishiga qaramasdan, uning amaliyotga tadbiq etgan intellektual texnologiyalari kiberhujumlarga nisbatan og‘ma xususiyatga ega bo‘lib, o‘ziga xos risklarni keltirib chiqarishi mumkinligi kuzatiladi. Energetika sanoati korxonalariga kiberhujumlardagi asosiy ko‘zlangan nishon moliyaviy manbalar sanalmaydi, aksincha moliyani uzluksiz ta’minlashga ega axborot sanaladi.

[6] https://www.ifap.ru/pr/2008/080908aa.pdf

2-jadval

Kiberjinoyatning egri o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar[7]

№	Omillar	Omilning kelib chiqishi	Kiberjinoyatlarning oqibatlari	Kiberjinoyatga qarchi xavfsizlik choralari
1.	Kiberjinoyatni fosh etish murakkabligi.	Internet tarmog’ida shaxsning anonim tarzda faoliyat olib borish imkoniyatining mavjudligi	Moliyaviy talofatlar	Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy qonunlarni amalga oshirish: O‘zbekistonga odamlarning shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlaydigan keng qamrovli ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari kerak. Ushbu qonunlar tashkilotlarni mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish uchun javobgarlikka tortishi va ma'lumotlarning buzilishi va rioya qilmaslik uchun jiddiy jazolarni belgilashi kerak.
2.	Kiberhimoyaviy befarqlik	Korxona va tashkilotlarning kiberhimoyaviy darajasining baholanmasligi va kiberxavfsizlik choralarining yetarlimas	Axborot konfidentsialligini saqlash hamda ma’lumotlar oqimini nazorat qilish	
3.	Transfarmatsion akseliratsiya	Dunyodagi raqamli transformatsion texnologiyalar to‘lqini elektron tijorat, elektron klasterizatsiya, onlayn-banking va raqamli tranzaksiyalarning takomillashuviga turtki bo’ldi.	Ustunlikdan foydalanish. Ilg’or texnologiyalar hayotni yanada qulaylashtirgan bo'lsa-da, kiberjinoyatchilar uchun onlayn platformalardagi zaifliklardan foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va moliyaviy firibgarlik.	Hamkorlik va axborot almashish: Davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligi muhim. Rivojlanayotgan tahdidlar, eng yaxshi amaliyotlar va kiberjinoyat tendentsiyalari ma'lumotlarini almashish kiberjinoyatchilarga qarshi jamoaviy mudofaani yaratishga yordam beradi.
4.	Kiberxafsizlikning qonuniy asosidan voqif bo’lmaslik.	Kiberjinoyatlarning o‘sishiga yordam beradigan asosiy omil - bu kiberxavfsizlikdan xabardorlik va ta'limning etishmasligi. Ko'pgina odamlar va tashkilotlar potentsial tahdidlarni aniqlash yoki tegishli profilaktika choralarini ko'rish uchun zarur bilimga ega emas. Bu bo'shlig'i ularni kiberjinoyatchilar uchun yengil nishonga aylantirdi	Ijtimoiy va psixologik ta'sir. Kiberjinoyat nafaqat shaxslar va tashkilotlarga moliyaviy ta'sir ko'rsatadi, balki chuqur ijtimoiy va psixologik ta'sir ko'rsatadi. Kiberbulling, onlayn ta'qib va kibertalking qurbonlari ko'pincha hissiy iztirob, tashvish va depressiyadan aziyat chekishadi.	Kiberxavfsizlik bo'yicha xabardorlik va ta'lim: Kiberxavfsizlik bo'yicha xabardorlikni oshirish va barcha darajadagi ta'lim shaxslar va tashkilotlarga o'zlarini kiber tahdidlardan himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir. Konsultatsion kampaniyalarini o'tkazish xavfsiz internet amaliyotlari va kuchli parollarning ahamiyati, dasturiy ta'minotni muntazam yangilash va xavfsiz ko'rish odatlari haqidagi bilimlarni tarqatishga yordam beradi.
5	Sayoz kiberxavfsizlik infratuzilmasi	Kiberjinoyatlardan himoya tizimini qo’llashga investitsiya qilinmasligi va uning nojoiz deb hisoblanilishi natijasida korxona va xizmat ko’rsatish tashkilotlarining moliyaviy talofat ko’rishi	Strategik ahamiyatga ega infratuzilmalarning buzilishi. Elektr tarmoqlari, transport tizimlari va hukumat tarmoqlari kabi muhim infratuzilmaga qaratilgan kiberhujumlar milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi.	Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash. Mamlakatga kuchli kiberxavfsizlik infratuzilmasiga, tahdidlarni aniqlash tizimlariga, xavfsiz tarmoqlarga va muntazam xavfsizlik auditiga sarmoya kiritishi kerak. Hukumat idoralari, xususiy tashkilotlar va kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik kiberjinoyatchilardan bir qadam oldinda bo'lish uchun juda muhimdir.

[7] Suhani Dhariwal. Rise of Cybercrime in India: Reasons, Impacts & Safety Measures. https://www.writinglaw.com/rise-of-cybercrime-in-india/

Energetika korxonalarining kibergigiyenasiga olinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar energiya ta’minot, iste’molchilarning konfidentsial ma’lumotlari sanaladi.

Axborot kibergigiyenasini to’g’ri boshqarish uchun energetika sanoati kiberxavfsizlik iqtisodiyoti kaskad samara orqali baholash, ya’ni elektr ta’minoti tizimidagi zanjirlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Energetika sanoati korxonalarining kiberhujumga uchrashi boshqa sanoati korxonalariga qaraganda yuqoriroq foizni tashkil etib, unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

Dissertatsiyaning **“Mamlakat iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish sharoitida energetika korxonalari kiberxavfsizligini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Toshkent IES” AJning kiberxavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini holatini baholash va uning faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy va axborot xavfsizligini ta’minlashning amaldagi holati tahlilini o‘rganish asosida ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

3-jadval

Kiberiqtisodiy hujumlarning kelib chiqish omillari (2016-2023 yy, foizda)[1]

T/r	Kiberiqtisodiy hujum omillari	Hujum ulushi	Baholash usuli	Baholash usulining tarkibi
1	Oylik ish haqi			
1.	Oylik ish haqining pastligi	22%	$M_s = \frac{M_t - M_r}{X}$	M_s-kiberhujumni amalga oshirgan ishchilarning oylik ish haqi; M_t-xakerning tarif bo‘yicha ish haqi; M_r-real vaqt olgan ish haqi; X-kiberhujum qilgan xakerlarning soni.
2.	Oylik ish haqi pastligi bois auditorga buyurtma	4%	$M_{sk} = \frac{M_{td} - M_{sr}}{X}$	Msk-kiberhujumni tadqiq etishda oylik ish haqi inobatga olish; Mtd-ishchilarning tarif bo‘yicha olishi lozim bo‘lgan ish haqi va hisobot qiymati; Mr-real ish haqini soliq bazasidagi qiymatlari; X-kiberhujum qilganlar soni.
2	Iqtisodiy maxinatsiya			
1.	Korxona tomonidan buyurtma asosida	14%	$I_m = \frac{I_t - M_t}{T_t - S_t}$	I_m-iqtisodiy maxinatsiya koeffitsienti; I_t-iqtisodiy to‘lovlar; M_t-moliyaviy operatsiyalar qiymati; T_t-hisobga olingan tovar moddiy boyliklari qiymati; S_t-realizatsion tovar soliq to‘lovlari.
2.	Sug‘urta korxonalaridan pul undirish	15%	$S_m = \frac{I_t - M_t}{B_{tl} - S_{g't}}$	S_m-sug‘urtalash orqali maxinatsiya koeffitsienti; B_{tl}-talofat yetkazilgan TMB; $S_t g'$-sug‘urtalangan obyekt.
3.	Moliyaviy shantaj	7%	-	Kredit operatsiyalarining va xususiy pul mablag‘larining iqtisodiy nofaol tarzda sarflanishi.
3	Tajriba va sinov			
1	Tizimning mustahkamligini sinash	5%	-	Xakerlarning tizimli urinishlari va imkoniyatlarini sinab ko‘rish

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanib borishi axborot iqtisodiyoti, elektron tijorat sohalarida qo‘shimcha qiymatning ortishiga salmoqli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda, eng yirik raqamli iqtisodiyot sanoatning elektroenergetika soha va tarmoqlarining qo‘shilgan qiymat yaratishga to‘g‘ri keladi.

[1] Лахани К. Янсити М. Цифровое преимущество. Исскуство конкурировать в эпоху исскустного интеллекта. Бамбора, М.: 2021 г, 319 стр, Павлюк Ю. Digital всемонущий. 101 инструмент для повышения продаж с помощью цифровых технологий. Эксмо, 2021 г, 208 стр.

4-jadval

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatining hajmi (*2018-2023 yy, mlrd. so‘m)*[2]

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Axborot sohasida iqtisodiyot va elektron tijorat	7,934	8,701	11,220	12,109	12,998	13,461
Shundan: Elektr energetika	1,099	2,471	3,729	5,583	5,990	6,780

Elektr energetika sohasida ishtirok etayotgan raqamli texnologiyalarning samaradorligi qo‘shilgan qiymat yarata olish qobiliyatining qiymat ko‘rinishidagi ko‘rsatkichlari oshib borishi sohaga iste’molchilarning iste’molini yaxshilashdan tashqari, uni ishlab chiqarish, taqsimlash, yo‘naltirish hamda uzatish bilan bog‘liq ilg‘or texnologiyalarning innovatsion infratuzilmani butunlay egallab borayatganligini, zamonaviy va aqlli stansiyalarning sonini oshib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Texnologik ta’minot o‘sgani sari uning himoya tizimi sustlashuvi va hali hal etilmagan masala ustiga yangi muammolarning qo‘shilishi holatida kiberxavfsizlik ko‘rsatkichlaridagi o‘rni pastlagan.

5-jadval

“Issiqlik elektr stansiyalar” AJ mavjud quvvatlardan foydalanish holati (2023-yil)[3]

№	IES va IEM nomlari	O‘rnatilgan quvvati, MVt	Amaldagi quvvati, MVt
1.	“Sirdaryo IES” AJ	3 415	3 150
2.	“Toshkent IES” AJ	2 430	2 100
3.	“Navoiy IES” AJ	2 268	1 850
4.	“Taxiatosh IES” AJ	1080	1000
5.	“Farg‘ona IEM” AJ	429	350
6.	“Muborak IEM” AJ	70	60
7.	“Toshkent IEM” AJ	67	60
8.	“Talimarjon IES” AJ	1 760	1 750
9.	“To‘raqo‘rg‘on IES” UK	950	870

Issiqlik elektrostansiyalarning quvvatlarini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida amaldagi quvvatiga nisbatan yuqori quvvatda ishlashi ta’minlangan bo‘lib, tadqiqot ishining obyekti sanalgan “Toshkent IES” AJ quvvati jihatdan ko‘rsatkichlari ikkinchi o‘rinni egallagan. Shunga ko‘ra, “Toshkent IES” AJ yirik ishlab chiqaruvchilar qatoridagi energetika korxonasi deyish mumkin.

Issiqlik energetikasi sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan raqamli iqtisodiyot tizimining o‘zgarishlari qanchalik yirik bo‘lmasin, mavjud elektrotexnikalar, ularning qo‘llanishi, ilg‘or texnologik ta’minotning kiberxavfsizligi bilan bog‘liq muammolar o‘z yechimini topa olgani yo‘q. “Toshkent issiqlik elektrstansiyalari” AJ tarkibida 7 ta blok bo‘lsada, barchasi axborot xavfsizligiga nisbatan bardosh bera oladigan texnologiya va dastur bilan ta’minlanmagan.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezindenti huzuridagi Statistika Agentligi

[3] “Issiqlik elektrstansiyalari” AJ ma’lumotlari



1-rasm. Elektr energetika korxonalari kiberxavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[1]

Bu holatning o‘z holicha qoldirilishi tufayli sohada energiyani o‘marish va uning iste’moli uchun to‘lovni sun’iylashtirish, energiya iste’molini sun’iy bebaholash, to‘lov rekvizitlaridan pul mablag‘larini qisman o‘marish chuvalchanglarini yo‘naltiruvchi dastur yordamida kiberhujumlarning amalga oshirilishi natijasida individual ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash yuzasidan yirik muammolar keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra, “Toshkent issiqlik elektr stansiyalar” aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-iqtisodiy faoliyatiga kiberxavfsizlik mexanizmlarni ishlab chiqish va uni raqamlashtirish algoritmini qo’llash tavsiya etiladi (1-rasm).

Xomashyo ta’minotini kiberxavfsizligini ta’minlash Logistik hujumlarni xakerning identifikatsion hisob raqamini topish fishingi orqali hujum uyushtiriayotganlarning tajribasini, hujum sxemasini, strategiyasini aniqlash hamda uning manzilini operativ tarzda topish imkonini beradi. Bu tashkiliy-iqtisodiy jihatdan barcha parametrlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga qaratilgan tadbir sanaladi.

“Toshkent IES” AJning axborot kompyuterlari texnologiyalaridan foydalanish ta’minoti darajasining funksional qo‘llab-quvvatlash tizimi elektrostansiyalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, aqlli texnologiyani ham qo‘llay oladigan standartiga ega. Uning iqtisodiy samaradorligi 6 ta an’anaviy hamda 3 ta zamonaviylashtirilgan muqobil parametrlarga ega kompyuterni o‘rnini bosa olishi bilan belgilanadi. Korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida raqamli texnologiyalarning tashkiliy-iqtisodiy faoliyatda axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmi va himoya dasturiga ega emas.

[1] Muallif ishlanmasi

6-jadval

“Toshkent IES” AJning axborot kompyuterlari texnologiyalaridan foydalanish ta’minoti darajasi[2]

№	Tashkilotning AKT vositalari, uskunalari dastgohlari				Texnik-iqtisodiy tahlil
	Nomi	Yaroqliligi darajasi (%)	Dona	Ishlab chiqarilgan joyi	
1.	Avtesh Intel Sore i7 6700K	45	34	Tayvan, 2012y	Litsenziyalangana antivirus dasturlari o‘rnatilishi lozim
2.	HP ZBook Studio x360	37	14	AQSh, Kaliforniya	Issiqlik elektrostansiyalari uchun mo‘ljallanmagan
3.	Minelab Equinox 800-metall detektor	100	2	Italiya, 2020 y	-
4.	AWS “Buxgalteriya”	28	4	AQSh, 2001	1S 8.4 ga almashtirish lozim
5.	GPS-treker	15	5	AQSh, 2004	GPS-trekerlarni zamonaviylariga almashtirish va sonini oshirish
6.	Elektrod qozonlar	22	2	Rossiya, 2000	Almashtirish lozim
7.	Xomashyo tozalash qozoni	9	2	Finlandiya, 1994	Ekologik tozalash qozonlariga almashtirish lozim
8.	470 Bl1,7,11 Quvvat bilan ishlash	78	2	Rossiya, 2010	Ekspluatatsiyadan chiqarish lozim
9.	Energobloklar	50	5	Rossiya, 2002	Konservatsiya qilish lozim

Korxona tarkibidagi hech bir AKT kiberhimoyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturi, mexanizmiga ega bo‘lmaganligi samaradorlikning barcha ko‘rsatkichlariga aksil ta’sir ko‘rsatgan holda korxonani inqirozga keltirishi mumkin. Bunda himoya tizimini olib borish xalqaro daraja saqlanishi lozimdir. Buning uchun xalqaro stanlartlarga asosan tegishli texnologiyalarni joriy etish hamda ularni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarni muqobillashtirish talab etiladi. Mazkur holat uchun standartizatsion transformatsiya mexanizmini qo‘llash talab etiladi.

Dissertatsiyaning “Elektr energetika sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyatining axborot xavfsizligi mexanizmlarini raqamlashtirish” deb nomlangan uchinchi bobida korxonalarning axborot xavfsizligi mexanizmlarini raqamlashtirishga oid modellashtirish va uning istiqbollari borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Multikollakt modeli ma’lumotlarni tezkor saralash orqali barqaror ma’lumot asosida himoya tizimini shakllantirish sanalib, uni AQSh iqtisodchi olimi Xel Variana tomonidan ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi tezkor ma’lumotlarni tasniflash asosida zaruriy qarorlarni qabul qilish uchun tegishli ssenariylarni qo‘llash rejalari majmuasini shakllantirish. Uning model sifatida koeffitsientlarini aniqlash uchun yirik masshtabda tahlil olib borishga hojat bo‘lmay, uning uchun ma’lumotlarning o‘zi yetarli sanaladi. Uning himoya tizimi kiberhujum qilayotgan xakerning taktikasini tahlil qilib, undan nus’ha ko‘chirish evaziga o‘zining tizimiga kirib borishiga yo‘naltirish sanaladi. Natijada, xaker o‘zining tizimiga manzilli kirib ketishiga to‘g‘ri keladi. Uning iqtisodiy asosini iqtisodiy risklarni so‘ndirish hamda

[2] “Toshkent IES” AJ ma’lumotlari

doimiy xarajatlarni himoya qilish sanaladi.Mazkur dissertatsiya ishida ushbu model strategiya darajasiga qadar takomillashtirildi. Unga ko’ra multiswriyaning xronologik ketma-ketligini asoslash, kiberhimoyaviylikni calqaro va milliy darajalarini qiyoslash mumkin (2-rasm).

2-rasm. Elektr energetika korxonalari kiberxavfsizligining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini faollashtirish strategiyasi[3]

Kiberxavfsizlik iqtisodiyotida izlanishlar olib borish davomida monotizimning ilmiy-amaliy hamda kibergigiyenaga amal qilgan holda Kuxning Drift modelidan foydalangan holda issiqlik elektrostansiyalarning axborot xavfsizligining iqtisodiy samaradorligini ta’minlanishini asoslash tavsiya etiladi. Mazkur model aslida raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilgan barcha texnika vositalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy ustunlik jihati iqtisodiy konseptual asosga hamda axborot texnologiyalarining dasturiy tuzilmasi bilan mutanosib hisoblay olish jihatlari sanaladi.

Drift modeli asosida hisob-kitob qilishda raqamli texnologiyalar matritsasini tuzish taqozo etiladi.



3-rasm. Drift modelining raqamli texnologiyalarni optimallashtirish matritsasi[4]

[3] Muallif ishlanmasi

[4] Tashakkori A, C. Teddlie, C. B. Teddlie, Mixed methodology: Combining qualitative and quantitative approaches, volume 46, Sage, 1998

Bu yerda:

m-xom ashyo materiallariga javob beruvchi raqamli texnologiyalarning himoya darajasi; n-ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli texnologiyalari himoya darajasi; g-kiberxavfsizlikning iqtisodiy risk darajasi; i-texnologiyalar soni; j-texnologiyalarning qiymati; A-daromadliligi; B-likvidligi.

i dan j ga o‘tishda xarajatlarning gorizontaldan vertikalga o‘zgarishi kiberxavfsizlik risk darajasini aniqlashga yordam beradi. Ya’ni har qanday kiberhujum an’anaviy ishlash tizimini o‘z holiga qo‘yganda ro‘y bermaydi, unda qaysidir element albatta o‘zgartiriladi va matritsaviy o‘zgarish ya’ni antimatritsa qiymatlari kelib chiqadi. Uning o‘zgarishi natijasi v_{ij} ning, ya’ni o‘zgarishlarga (kiberhujumlarga) bardosh bera olish darajasini belgilab beradi. Bu esa kiberhujumlarning iqtisodiy jihatdan himoyalash dasturining standartiga hamda dasturiy tilining ishlab chiqaruvchining o‘rnatgan va bergan dasturiy buyruqlarini ta’minlashning har tomonlama inobatga olinganligiga, shuningdek, iqtisodiy axborot tizimi bloklariga javob bera olishiga bog‘liqdir.

A nuqtada daromadlilik 0 ga teng bo‘lib, bunda iqtisodiy zararning yetkazilmaganligini, iqtisodiy ma’lumotlarning daxlsizligini hamda elektrostansiyadan uzatma panellarinidan elektr energiyasini yo‘naltirishga tegishli o‘zgarish bo‘lmaganligini anglatadi. Bu esa samaradorlikni bir muncha bo‘lsada oshirishga xizmat qiladi, ya’ni V nuqtada xom ashyo va ishlab chiqarish jarayonlaridagi texnologiyalarning himoya darajalarining o‘zaro aloqadorligidan kelib chiqadi.

m, n hamda iqtisodiy yo‘qotishlar uchun g_{ij} , v_{ij} (i=0,1,2,...,m; j=0,1,2,..., n) himoya tizimida asosiy komponent himoya dasturlari bilan navbatma-navbat o‘zining vazifasini o‘tashi ko‘zda tutiladi (eskirgan va yangi dastur bo‘lishidan qat’iy nazar). Ularning matematik matritsaviy jihatdan n(m+1) ning ortib borishi natijasida g_{ij} va m(n+1) ning ortishi natijasida v_{ij} dagi o‘zgarishlar mutanosibligini saqlaydi.

O‘zgarishlarning oraliq farqini aniqlashda barcha tanlovlarni qayta tarkiblash usulidan foydalanish A nuqtadan V nuqtagacha jarayonlarning matritsaviy trayektoriyasi qiymatlarini va risk koeffitsiyentlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bizning holatimizda himoya tizimlari tanlovlar majmuasidan tegishlisi faollashtirilib, o‘zini biroz ichki dasturlarni algoritmini buzishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ularni tizimda yolg‘on qopqon ma’lumotlarni almashinuvi evaziga himoya qilinadi.

$$S = \frac{(m+n)!}{m!n!} (1)$$

Bu yerda S=kiberxavfsizlik himoyasining tanlovlari orasidagi yo‘qotishlari; m=n=10; Bizning holatimizda S=184756 ga teng.

Keyingi hisob-kitob qilish tartibida m=n=1 ga tenglashtirilib, bunda asosiy optimallashtirilishi lozim bo‘lgan tanlov bitta bo‘lishi lozimligini anglatadi. (4-rasm).



